



Hilola Islomova,

olii toifali dasturchi-muhandis

AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT-KUTUBXONA TIZIMI ORQALI AXBOROT TAHDIDLARINING OLDINI OLİSH

Hozirgi davrda mamlakamizning axborot-kutubxona muassasalarida avtomatlashirilgan axborot-kutubxona tizimidan keng foydalaniladi. Mazkur tizim yordamida elektron katalog, yig'ma elektron katalog, elektron kutubxona yaratish ishlari amalga oshiriladi.

Axborot-kutubxona ta'liming tarixi, hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini yoritish, jahon axborot-sivilizatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, taraqqiyotning nazariy-uslubiy qoidalari asoslab berish, kutubxona-axborot sohasi bo'yicha mutaxassis kasbiy faoliyati kompetensiyalarini shakllantrish, soha bo'yicha kadrilar tayyorlashda innovatsion jarayonlarning jahon tajribasini tahsil qilish kutubxonachilik sohasi rivojining asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, jamiyatning rivojlanishi bevosita iqtisod, madaniyat, ijtimoiy sohalaridagi fan va ta'limga bog'liq bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda to'g'ridan-to'g'ri ARM xodimlari ham mas'uliyatlari sharafli ishlarni amalga oshirishlari talab etiladi, ya'ni har bir mutaxassislik uchun tegishli ta'lim resurslarini tizimlashtirish, ularga mos adapbiyotlarni saralash, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishlarini ortirish uchun qo'shimcha adapbiyotlar bilan tanishtirish, internet texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim jarayoniga oid jahon axborot vositalarida mavjud ma'lumotlarni olishlari va bilimlarini mustahkamlashda foydalanishlarini tashkil etishdir.

Shu sababli ham, foydalanuvchilarga ARMAT dasturining to'liq matnli ma'lumotlar bazasidan foydalanishni keng tatbiq qilish dolzARB vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki axborot kutubxona muassasalaridagi asosiy axborot jarayonlarini avtomatlashirishga mo'ljallangan ushbu dastur barcha turdag'i hujjalarning elektron katalogi va to'liq matnli ma'lumotlar bazasini yaratishga mo'ljallangan.

Bugungi kunda Respublikamizda elektron kutubxonaning elektron katalogini yaratish texnologiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar soni yetarli emas, biroq unga ehtiyoj juda katta.

Axborot-kutubxona fanlarini o'qitish uchun innovatsiya ilmiy yutuqlarini, texnika, texnologiyalarni, uyg'unlashtirilgan uslublarini, masofadan o'qitish uslublarini, zamонави pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda va mustaqil ta'lim olishdan foydalanib o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ARM xodimlarini malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning ta'lim dasturlari ishlab chiqildi hamda joriy etildi.

Shu bilan bir qatorda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ARM xodimlari malakasini oshirish bo'yicha namunaviy o'quv rejalarini va dasturlari ishlab chiqildi. Axborot-kutubxona fanlarini o'qitishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladigan me'yoriy hujjalatlar 1-shaklda berilgan.

Ma'lumki, fan, texnika va texnologiyaning bugungi kundagi rivoji foydalanuvchilardan mustaqil ravishda jahon axborot muhitidagi manbalardan unumli foydalanib, bilim olishni taqozo qilmoqda. Bu, ayniqsa, jahon axborot muhiti, ya'ni internet tarmog'idan axborot xavfsizligi ta'minlangan hamda axborot tahdidlariga qarshi bo'lgan ma'lumotlardan keraklisini topish mushkul vazifa bo'lib qolmoqda.

Bunday holatda global, korporativ va lokal tarmoqlardagi elektron kutubxonalaridan foydalanish eng to'g'ri yo'l bo'lib, multi-mediali o'quv qo'llanmalar, elektron trenajyorlar va elektron resurlardan foydalanish axborot tahdidlariga qarshi kurashishning bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kutubxona tizimidan foydalanish axborot-kutubxona muassasalarini faoliyati, xizmat ko'rsatish safati va madaniyatini oshirishga sabab bo'ladi. Axborot-kutubxona muassasalarida yig'ma elektron katalog ma'lumotlar bazasidan foydalanish muhim ahamiyat kashb etadi. Zero, axborot tahdidlariga qarshi kurashishda ilm-ma'rifat va tarbiya maskani bo'lgan kutubxonalaridan foydalanish davr tablidir. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimini ilmiy-ta'limiyl va ilmiy-texnikaviy axborotlar bilan ta'minlash bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning saviyasi va madaniyatini yuksaltirishga olib keladi.

